

SAYID RIZO ALIZODA UY-MUZEYINING MADANIYATIMIZ TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Nazarov Ulug'bek Ismatovich
SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sayid Rizo Alizoda uy-muzeyining madaniyatimiz tarixida tutgan o'rni va ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar jamlangan.*

Kalit so'zlar: *Sayid Rizo Alizoda uy-muzeyi, Farhod Alizoda, "Zarafshon" gazetasi, "Jumhuriyat", "Sharq ovozi", "Zafar", "Hayot", "Hurriyat".*

Madaniyatimiz tarixida shunday insonlar yashab o'tganki, ularning olib borgan ishlari avlodlar sa'y-harakatlari misolida barhayotgek, go'yo. Shunday mutafakkirlar sirasiga, shubhasiz, Sayid Rizo Alizodani keltirib o'tishimiz mumkin. Uning avlodlari ham adib yaratgan ziyo tarqatish ishini davom ettirmoqda.

Sayid Rizo Alizodaning nabirasi tadqiqotchi Farhod Alizoda bobosining xokini Samarqandga olib kelib dafn ettirdi. Hozir Samarqandda Farhod Alizoda tashkil etgan uy muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Muzeyda Sayid Rizo Alizodaning boy merosi, faoliyatiga oid ko'plab eksponentlar saqlanmoqda, Samarkanddagi muzey joylashgan ko'cha va mahalla uning nomiga qo'yilgan. Oradan yillar o'tib, mustaqillik sharofati bilan Sayid Rizoning nabirasi Farhod Alizoda Moskva yaqinidagi Ximki shahri kutubxonasida ikki oy davomida bobosi Sayid Rizo hayotiga oid materiallar tadqiqoti bilan jiddiy shug'ullandi hamda matbuotimiz tarixiga oid qimmatli materiallarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, u Pokiston islom davlati prezidenti Parvez Musharrafning taklifi bilan 2004 yil iyunda o'n kun Pokistonda bo'ldi. 2007 yil 3 dekabrda 18 dekabrga qadar Farhod Alizoda Eron islom davlati prezidenti Mahmud Ahmadi Najodning taklifi bilan dunyo eroniylarining Tehronda o'tkazilgan kongressida ishtirok etdi. Shu asosda uning "Zarafshon" gazetasida "Bizkim, turkistonliklar..." (11.11.2005), "U bashar farzandi edi" (10.01.2008) singari qator maqolalari e'lon qilindi. 2012 yilning iyul-avgust oylari davomida Farhod Alizoda Turkiyada bo'lib, XX asr boshlarida bu mamlakatda nashr etilgan "Oqshom", "Emel", "Jumhuriyat", "Sharq ovozi", "Zafar", "Hayot", "Hurriyat", "Maslak", "Zamon" kabi matbuot sahifalarini ko'zdan kechirib, o'sha davrda bobosi nashr ettirgan maqolalarga oid noyob daliliy materiallar to'plab qaytdi. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda va ko'pgina hamdustlik davlatlarida alizodashunoslik ilmi yuzaga keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir qancha olimlar, ma'rifat shaydolari Sayid Rizoning hayoti, ijodiy, ilmiy-pedagogik faoliyatini o'rganish, uning boy ilmiy-publitsistik merosini to'plash, nashr etish, targ'ib

qilish sohasida qator ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, G'aybulla as-Salom, Saydi Umirov, Baxtiyor Nazarov, Ulug'bek Dolimov, Salohiddii Hayitov, Farhod Alizoda, Farmon Toshev, Muzaffar Muqimov, Adham Hayitov, Tog'aymurod Shomurodov, Ubay Qodirov kabilarning qator maqolalari turli gazeta- jurnallarda e'lon qilindi, "Sayid Rizo Alizoda" nomli buklet, bibliografik ko'rsatkich nashr etildi. Professor G'aybulla as-Salomning "Ezgulikka chog'lan odamzod" nomli saylanma kitobiga kiritilgan "Uni "ORO" der edilar" sarlavhali ilmiy-publitsistik maqolasi, "Fozil inson hissasi" risolasi alizodashunoslik ilmini yanada yuksak pog'onaga kutarishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi olim Saxovat Odjiev esa Saidrizoning pedagogik karashlarini maxsus o'rganib, Bokuda nomzodlik ishini himoya qildi. Samarqand shahrida Sayid Rizo Alizoda tavalludining 110 (1997) va 115 (2002), 120 (2007) yilligi keng nishonlandi, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Sayid Rizo uy-muzeyi ta'mirlanib, qayta jixozlandi, "Sayid Rizo Alizoda" ilmiy-pedagogik va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotnoma tuzilib, nashr etildi.

Chunki har bir xalq jamiyatda yashar ekan, o'z ona tilida gapirish, yozish, bilim olish, muloqot qilish huquqiga ega. Jamiyat taraqqiyoti uchun shu jamiyat a'zosi bo'lgan xalq yoki elat vakili o'z ona tilidan tashqari boshqa tillarni ham o'rganishi, o'sha tillarda ham muloqot qilishi yaxshi samara beradi. "Sho'rlayi inqilob" jurnalida e'lon qilingan maqolalaridan birida Sayid Rizo Alizoda "Har bir millat o'z ona tilida gapirishi, yozishi, o'qishi, o'qitishi, maktablarga, kutubxonaga, gazeta va jurnallarga ega bo'lishi, shu tilda kitob, risolalar nashr etishi, majlislarda muhokamalar olib borishi, ma'ruzalar bilan chiqish qilishi lozim bo'ladi",- deb yozgandi. O'tgan asrning 20-yillarida Alizodaning uyiga Hindistondan Mirmuhammad Galmoni Afg'on degan kishi mehmon bo'lib keladi hamda Sayid Rizo bilan do'st tutinadi. Asli kasbi noshirlik bo'lgan Mirmuhammad keyinchalik Sayid Rizoning bir qancha qo'lyozmalarini o'z vatani Loxurga (bu shahar 1948 yilgacha Hindiston tasarrufida edi, hozir Pokistonga qaraydi) olib ketadi va birin-ketin ularni nashr ettiradi. Shuning uchun Sayid Rizoning "Alifbo", "Turkiston tarixi", "Islom tarixi", "Islom madaniyati". "Fan koinot haqida" kabi asarlari, tarjimalari Loxurda nashr qilingan. Sayid Rizo ilmiy-pedagogik faoliyatining yorokin sahifalari UzDU (hozirgi SamDU) bilan ham bog'liq. U 1933- 1937 yillarda UzDUning tarix, filologiya va boshqa gumanitar fakultetlari talabalariga arab, fors, tojik va o'zbek tillaridan saboq berdi, sohada ko'plab shogirdlar tayyorladi. Jumladan, u Rahim Hoshim, Sharof Rashidov, O'tkir Rashid, Burhon Tursunov, Hamdam Berdiyev, Ulug' Rahimov, Qodir Imomov kabi atoqli yozuvchi, shoir, olim va pedagoglarni ham o'qitdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirvaliev M. Jadid maktablari tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1998.
2. “Oyna” jurnali. 1914–1915-yillar sonlari.
3. Qosimov B. Turkiston jadidchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2002.
4. Rahimov A. Jadid ma’rifatchilari merosi. –Samarqand, 2010.